

TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI



2018 yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar



Joriy davrda 3731,6 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 49,8%i yirik korxonalar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lса, qolgan 50,2 %i kichik biznes sektoriga to'g'ri kelgan.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan:

Respublika byudjeti:
88,1 mlrd.so'm

O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar:
10,8 mlrd. so'm

Davlat maqsadli jamg'armalari:
18,7 mlrd.so'm

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan:


Aholi mablag'i :
320,1 mlrd.so'm

Korxona mablag'i:
1775,6 mlrd.so'm


Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari:
1314,5 mlrd.so'm

To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar:
203,8 mlrd.so'm

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (jami hajmdagi ulushi, %da)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish suratlari




Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish surʼati 3,2 martta ko'payish Sergeli tumanida kuzatildi. Bu asosan "Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroporti" va "O'zbekiston rangli metal parchalari chiqindilarini tayyorlash va qayta ishlash zavodi"ni modernizatsiyalash bo'yicha investitsiyalar bilan bog'liq. Yashnabod tumanida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2 marttadan

ortiq o'sishi asosan "O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi elektromagnit moslashuvi markazi" DUKning internet va aloqa sifatini yaxshilash uchun texnikalar sotib olish bilan bog'liq. Yunusobod tumanida ham 23,5 foizga o'sish kuzatilib, ushbu hududdagi "KAPITALBANK" ATB yangi bank dasturlari uchun server xarid qilinganligini keltirish mumkin.



Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar (davomi)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilgan hajmi bo'yicha hudular kesimida Yunusobod tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 16,9 % i o'zlashtirildi.

Shuningdek Yakkasaroy tumanida o'tgan yilning mos davriga nisbatan tushish kuzatilgan bo'lsada, investitsiyalar hajmi bo'yicha shaharda ulushi Mirzo Ulug'bek tumanidan keyingi o'rinda 5,7 % ni

tashkil etmoqda.

Mirobod va Olmazor tumanlarida ushbu ko'rsatkich mos ravishda 16,4 va 12,6 %ni tashkil etdi.

Uchtepa hamda Bektemir tumanlarida investitsiyalar eng kam o'zlashtirilgan bo'lib, har birining Shahardagi ulushi 3,9% va 2,5%ni tashkil etdi.




Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha 1770,4 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar 1728,4 mlrd.so'm va boshqa xarajatlarga 232,8 mlrd. so'm o'zlashtirildi.



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida uy-joy qurilishi yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 948,4 mlrd.so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 25,4 %i o'zlashtirilgan.

Undan keyingi o'rinda sanoat tarmog'i 821,5 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 22,0 %i o'zlashtirildi.

Sanoat tarmog'ida tarkibida eng ko'p investitsiya o'zlashtirilgan 3 faoliyat turi quyidagilar:

- Mashinasozlik majmuasi 184,7 mlrd.so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 4,9 %);
- Oziq-ovqat sanoati 167,5 mlrd.so'm (4,5 %);
- Oynasozlik va farfor-foyans sanoati 108,9 mlrd.so'm (2,9 %).



Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

Tarmoqlar kesimida	Kapital qo'yilmalar, jami	shu jumladan:		O'sish sur'ati, %	
		Xorijiy investitsiya va kreditlar	Solishtirma ulush, %	Kapital qo'yilmalar	Xorijiy investitsiya va kreditlar
Toshkent shahri bo'yicha	3 731,6	214,6	100,0	130,7	53,7
Sanoat	821,5	66,1	30,8	147,9	90,0
Transport	245,3	5,6	2,6	102,8	383,8
Aloqa	107,8	41,2	19,2	41,9	20,7
Savdo va umumiy ovqatlanish	342,1	18,7	8,7	93,0	82,5
Qurilish	108,8	7,0	3,3	45,1	129,8
Moddiy-texnika ta'minoti	54,6	8,6	4,0	317,5	165,1
Axborot-hisoblash sohasi	8,8	2,8	1,3	73,2	86,3
Bozor faoliyatini yuritish sohasi	10,2	4,1	1,9	106,2	638,5
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	149,8	12,5	5,8	78,2	1 572,0
Moddiy ish.ch. va boshqa tarmoqlar	122,7	26,6	12,4	88,8	223,9
Uy-joy qurilishi	948,4	0,0	-	282,7	-
Kommunal qurilish	158,0	6,0	2,8	596,2	1 262,6
Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish	26,8	0,9	0,4	175,7	453,4
Sog'liqni saqlash	102,3	7,9	3,7	121,3	156,3
Ta'lim muassalari	22,6	0,0	-	31,8	-
Madaniyat va san'at muassasalari	82,0	0,8	0,4	410,5	18,5
Moliya-kredit muassasalari	411,1	5,8	2,7	151,8	9,7



**Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

Aloqa telefoni:

Sh.Yarashov

(0371) 230-88-18